



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
2-сон



МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Фарход Ҳамидович Набиев Порахўрлик ва коррупциянинг хусусиятлари ва тараққийга таъсири	5
Шаҳобиддин Зиядуллаевич Ҳрозов Темурийлар даври нақшбандия тариқати вакили Хожа Алоуддин Аттор ўғитлари ва унинг фалсафий моҳияти	10
Ҳасан Абдусаитович Рахимов Меҳмонхона хўжаликларида кўрсатиладиган хизматларнинг мазмуни билан боғлиқ назарий масалалари	15
Bekniyoz Baxtiyor o‘g‘li Suvonov Хо‘jalik yurituvchi subyektlarda menhat sarfining iqtisodiy mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari	18
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Фароғат Болтаевна Шакирова Инновацион иқтисодиётга трансформациялашув жараёнида айрим муаммолар ва уларни бартараф этишнинг аҳамияти	23
Азамат Абдукаримович Касимов Саноат ривожланишини эконометрик моделлар асосида тадқиқ қилишнинг ўзига хос хусусиятлари	28
Тухта Даминович Маматкулов Иқтисодиётни ривожлантириш ва рақамлаштиришда саноат 4.0 нинг аҳамияти	33
Dilafuz Saidbaxromovna Saidaxmedova Tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini oshirish imkoniyatlari	39
Шаҳноза Сууюновна Рузиева Сунъий интеллект технологиялари ва уларнинг таълимни ривожлантиришдаги самараси	42
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Нилуфар Абдувахидовна Юлдашева Саноат корхоналарида инновацион ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг концептуал асослари	47
Асроржон Ахроржон ўғли Илёсов Саноат маҳсулотлари экспортидаги асосий тенденциялар: миллий ва ҳудудий таҳлил	52
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Шодиёр Абдихалилович Султонов Хизмат кўрсатиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш масалалари	56
Анвар Нематович Холиқулов Хизмат кўрсатиш корхоналарида сервис сифати ва маданиятини оширишга эришиш йўллари	62
Xurshidaxon Alisherovna Yegamberdiyeva O‘zbekiston temir yo‘llari sharoitida vagon parkini aniqlashda qo‘shimcha omillarni hisobga olish	65
Асқар Ахрорович Сиддиқов Умумий овқатланиш корхоналарида инновацияларнинг таснифланиши	69

ганлигини инобатга олиб, улардаги таснифлар ва меҳмонхоналарнинг турлари ўрганилди ва улардан мамлакатимизда фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари очиб берилди. Мамлакатимизда меҳмонхона хизматлари самарадорлигини ошириш учун уларни ихтисослаштириш лозимлиги асосланди ва унинг асосий йўналишлари ҳам кўрсатиб берилди.

2. Мазкур масаланинг назарий жиҳатлари тадқиқ қилиниб “Меҳмон”, “Меҳмонхона”, “Меҳмонхона хўжалиги”, “Меҳмонхона хўжалиги томонидан кўрсатиладиган хизматлар”, “Меҳмонхона индустрияси”, “Меҳмонхона бизнеси” тушунчаларининг такомиллашган муаллифлик таърифи ишлаб чиқилди.

Бизнинг тавсияларимиз амалиётда ва илмий адабиётларда қўлланилса, ўйлаймизки, туризмнинг турларига аниқлик киритилиши, адабиётларда илмий-назарий масалаларнинг ёритилиши борасида бир қанча қулайликларни туғдиради. Биринчидан, мамлакатимизда ушбу соҳа бўйича классификаторни такомиллаштириш имконияти яратилади. Иккинчидан, янги авлод адабиётлари ҳам ушбу туризмнинг турлари билан бойийди ва уларнинг назарий ва амалий муаммолари тадқиқ қилиниб, жуда кўп ечимларга жавоб топилади. Тўртинчидан, турфирмалар самарадорлиги ошади ва янги авлод адабиётларининг пайдо бўлиш имконияти яратилади ва уларнинг мазмуни замонавий гоёлар билан бойитилади.

Х.Рахимов	H.Rahimov
Теоретические вопросы, связанные с содержанием услуг, предоставляемых в гостиницах	Theoretical issues related to the content of services provided in hotels
Аннотация: в статье рассмотрены теоретические вопросы, связанные с содержанием услуг, предоставляемых в гостиницах, особенности значения понятий «Гость», «Гостиница», «Гостиничное хозяйство», «Услуги, предоставляемые гостиницей», «Гостиничное дело».	Abstract: the theoretical issues related to the content of services provided in hotels, the features of the meaning of the concepts "Guest", "Hotel", "Hotel industry", "Services provided by the hotel", "Hotel business" are considered in the article.
Ключевые слова: гость, гостиница, гостиничный бизнес, услуги гостиничного бизнеса, гостиничное хозяйство.	Keywords: Guest, hotel, hotel business, hotel business services, hotel industry.

Bekniyoz Baxtiyor o‘g‘li Suvonov – Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktaranti

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MENHAT SARFINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<p>Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi mehnat bozorida sotish va sotib olish subyekt bo‘lganligi sababli uning narxi boshqa iqtisodiy tovarlar kabi asosiy iqtisodiy qonunlar va birinchi navbatda qiymat qonuni ta’siriga bo‘ysunadi. Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat sarfi ko‘rsatkichlarining nazariy asoslari bo‘yicha takliflar va muammolar haqida so‘z boradi.</p> <p>Kalit so‘zlar: mehnat, mehnat sarfi, mehnat unumdorligi, ishchi kuchi, Ijtimoiy sug‘urta, “mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori”, Mehnat intensivligi.</p>
--

Kirish. Hozirgi davrda dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o‘zining ma’no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Biroq, o‘z o‘rnida ta’kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashtiruvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma’lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning mavjudligi, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o‘zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo‘jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarning yana bir jihati – jahonning bir mamlakatida ro‘y berayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazishi hisoblanadi.

Bugungi kundagi bu inqirozlar o‘z-o‘zidan mehnat bozoriga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmayapdi. Mehnat bozoridagi bunday inqirozlar ishchi va xodimlar daromadlarining kamayishiga olib kelmoqda. Shuning natijasida, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat sarfi kamaymoqda. Aslini olganda umumiy hajmga nisbatan olganda mehnat sarfining kamayganligi xo‘jalik yurituvchi subyektga foyda bo‘lishi kerak, lekin bu holatda ikkala tomonga ham yo‘qotishlar olib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. N.V.Klimova “Mehnat sarfi – mehnat qiymatining puldagi ifodasi; mehnat shartnomasi bo‘yicha bajarilgan ish uchun pul to‘lovlari miqdori; ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan mehnat resurslarining narxi; jami ijtimoiy mahsulotning pul bilan ifodalangan, sarflangan mehnat miqdori va sifatiga muvofiq ishchilarning shaxsiy iste‘moliga tushadigan qismi; mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining korxonada xodimlarining mehnatiga haq to‘lashga yo‘naltirilgan qismi; xodimning mehnati uchun qonun hujjatlarida va mehnat shartnomasida belgilangan miqdorda oladigan pul mukofoti”, deb ta‘riflaydi[1].

Jack E. Triplett: “Mehnat sarfi o‘lchovlari turli maqsadlar uchun muhim hisoblanadi, masalan, ishlab chiqarish funksiyasini baholash, inflyatsiya tahlili va ish beruvchilarning turli toifalarining xarajatlari darajasi yoki xarajat tajribasi to‘g‘risida vaqtlararo, hududlararo yoki tarmoqlararo xulosalarni shakllantirish”[2].

M.Q.Pardayev va boshqalar: “Mehnat sarfi – odamlarning tabiat va jamiyat ne‘matlarini o‘z ehtiyojiga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladigan ongli faoliyat jarayoniga to‘lov”[3].

N.V.Posherstnik va M.S.Meyksin: Mehnat sarfi (ish haqi) ishchilar va xizmatchilarning asosiy daromad manbai bo‘lib, uning yordamida mehnat va iste‘mol o‘lchovi ustidan nazorat amalga oshiriladi, u iqtisodiyotni boshqarishning eng muhim iqtisodiy dastagi sifatida ishlatiladi[4].

Ingliz klassik siyosiy iqtisodining asoschisi V.Petti, yollanma ishchining ish haqi «ishchining mavjudligini» ta‘minlovchi mablag‘larning minimal to‘plami bilan belgilanishi kerak, deb hisoblagan[5].

A.Smitning mehnat sarfiga ta‘rifi o‘zidan oldingi va zamondoshlaridan biroz farq qilgan. U ishchi uchun ma‘lum bir eng kam ish haqini ko‘rib chiqdi, bu “hech bo‘lmaganda uning mavjudligi uchun yetarli bo‘lishi kerak. U biroz yuqoriroq bo‘lishi kerak; aks holda uning oilasini boqish imkonsiz bo‘lib, birinchi avloddan keyin ishchilar oilasi yo‘q bo‘lib ketadi”[6].

Eng kam ish haqini ta‘kidlab, A.Smit uni qashshoqlik chegarasi sifatida belgiladi. Uning ta‘kidlashicha, yollanma ishchilar har qanday yirik jamiyatning asosiy qismini tashkil qiladi va shuning uchun “ko‘pchilikning mavjudligi uchun sharoitlarni yaxshilaydigan narsa hech qanday tarzda butun uchun zararli deb hisoblanishi mumkin emas. Hech bir jamiyat, shubhasiz, agar a‘zolarining katta qismi kambag‘al va baxtsiz bo‘lsa, gullab-yashnashi va baxtli bo‘la olmaydi”

Mehnat xarajatlari nazariyasining keyingi rivojlanishi uning tarkibiga kiradigan komponentlar majmuasining kengayishi bilan bog‘liq. Mehnat xarajatlari nazariyasiga eng muhim qo‘shimcha – bu uning tarkibiga malaka va ijtimoiy sug‘urtani saqlash (rivojlantirish) uchun ijtimoiy zarur xarajatlarni kiritishdir. Shunday qilib, taniqli sovet iqtisodchisi S.G.Strumilin ishchi olgan tirikchilik vositalari miqdori ishchi va uning oilasining yashashiga imkon beradigan xarajatlardan tashqari, “maktab bilan ta‘minlaydigan ma‘lum darajadagi xarajatlarni o‘z ichiga olishi kerak” va “ishchi uchun kasbiy tayyorgarlik”, shuningdek, “qora kunlar uchun” tejjash shaklida ifodalangan “Jamg‘arma va sug‘urtalar”[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma‘lumotlarni to‘plash, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, monografik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. “Mehnat sarfi” atamasi ish beruvchining qo‘shimcha mehnat birligini yollash xarajatlarni nazarda tutadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi mehnat bozorida sotish va sotib olish subyekti bo‘lganligi sababli uning narxi boshqa iqtisodiy tovarlar kabi asosiy iqtisodiy qonunlar va birinchi navbatda qiymat qonuni ta‘siriga bo‘ysunadi. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki, ommaviy takror ishlab chiqarilgan tovarlarni ishlab chiqarish va

ayirboshlash ijtimoiy zaruriy mehnat xarajatlariga muvofiq, ya'ni tannarx bo'yicha amalga oshirilishi kerak. Mehnat sarfining ijtimoiy zarur darajasi ishlab chiqarishning o'rtacha sharoitlari bilan belgilanadi. Ish kuchining tannarxi (klassik siyosiy iqtisod vakillarining mehnat sarfi) uni yaratish uchun ijtimoiy zaruriy xarajatlar bilan belgilanadi, ya'ni ishchi va uning oilasini ta'minlovchi tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti qiymati.

Shunday qilib, mehnat sarfini tashkil etuvchi ijtimoiy zarur xarajatlarning quyidagi tarkibini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Ishchining ishchi kuchi sifatida mavjudligini ta'minlaydigan xarajatlar.

2. Xodimning oilasining mavjudligi uchun xarajatlar. Ushbu xarajatlar guruhining mehnat xarajatlari tarkibiga kiritilishi vaqtinchalik jihatda ishchi kuchini takror ishlab chiqarish zarurati, ya'ni bolalarni tabiiy mehnat siljishi sifatida o'qitish va tarbiyalash zarurati bilan bog'liq. Moddiy ishlab chiqarish resurslari bilan taqqoslaganda, ishchi kuchiga nisbatan ma'lum bir shartlilik bilan "mehnat amortizatsiyasi" atamasi qo'llanilishi mumkin.

3. Ishchi kuchining malakasini oshirish xarajatlari. Ishlab chiqarish fondlarini doimiy ravishda yangilab borish zaruriyatini keltirib chiqaradigan ilmiy-texnika taraqqiyotining muttasil jadallashuvi ishchi kuchining malaka darajasiga qo'yiladigan talablarni oshirish zaruratini tug'dirmoqda. Bunday sharoitda xodim doimiy ravishda o'z malakasini oshirishga majbur. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday xarajatlarning bir qismi ish beruvchi va davlat tomonidan qoplanadi. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorida ishchi kuchining raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun asosiy vazifa ishchining o'z yelkasida. Shuning uchun ishchi kuchining malakasini oshirish xarajatlarining ijtimoiy normal darajasini ishchi kuchi tannarxiga kiritish zarur.

4. Ijtimoiy sug'urta xarajatlari. Ushbu xarajatlar mehnatga haq to'lashning bir qismi sifatida ma'lum darajadagi jamg'armalar va ajratmalarni hisobga olishning tarixiy va ijtimoiy shartli zaruratini belgilaydi, bu esa xodimning mehnatga qobiliyatsizlik davrida (pensiya davrida, kasallik paytida) mavjudligini ta'minlashga imkon beradi. "Malakaviy" xarajatlarda bo'lgani kabi, ish beruvchi va davlat xodimlarni ijtimoiy sug'urtalash xarajatlarining ma'lum qismini o'z zimmlariga oladi. Shu sababli, mehnat sarfiga faqat ijtimoiy sug'urta xarajatlarining bevosita xodim tomonidan qoplanadigan qisminidir.

Kontseptual yondashuv doirasida mehnat sarfi ish haqiga ta'sir etuvchi va uning ma'lum obyektiv pastki chegarasini ifodalovchi omil sifatida taqdim etiladi[8]. Shuni ta'kidlash kerakki, ishlab chiqarish omili sifatida ishchi kuchining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy va mehnat munosabatlarining tabiati tufayli, ushbu ish haqi chegarasi qat'iy emas, qisqa muddatda ushbu chegaradan pastroq ish haqining ma'lum darajada kamayishi mumkin. Biroq, o'rta muddatli istiqbolda (va undan ham uzoq muddatda) bunday pasayish mehnat salohiyatining tanazzulga uchrashiga, ishchilarning ommaviy ravishda chiqib ketishiga va pirovardida, ijtimoiy ishlab chiqarish tizimining yo'q qilinishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori eng muhim davlat ijtimoiy standartlaridan biridir. Rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi, yashash minimumi kambag'allik chegarasining mezon ko'rsatkichi bo'lib, mintaqaviy darajada qonuniy tartibga solinadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda qo'llanilayotgan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori faqat insonning biologik omon qolishini ta'minlashga imkon beradi. Bunday sharoitda faqat fiziologik yashash minimumi haqida gapirish mumkin. Eng kam ijtimoiy standart "mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori" tushunchasiga mos kelishi uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori nafaqat fiziologik, balki ma'lum darajadagi ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarni ham hisobga olishi kerak.

Marksistik nazariyaga ko'ra, mehnat sarfi, xuddi boshqa tovar kabi, uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti bilan belgilanadi. Ish kuchi faqat tirik shaxsning qobiliyati sifatida mavjud bo'lganligi sababli, ishchi kuchini ishlab chiqarish uning hayotini ta'minlashni nazarda tutadi. O'z hayotini saqlab qolish uchun insonga yashash vositalarining ma'lum bir miqdori kerak, shuning uchun ishchi kuchi ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti ushbu tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtiga qisqartiriladi. Marksistik nazariya shu tushunchaga asoslanadi: mehnatning qiymati yo'q. Bu ish kuchining qiymati va narxi haqida,

lekin ikkinchisi ish haqi shaklini oladi. Bundan tashqari, shuni tushunish kerakki, mehnat va ish haqi qiymatining minimal miqdorini belgilash butun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadigan omillarga bog'liq. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

- Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotning holati va uning rivojlanish darajasi.
- Jamiyat darajasida tan olingan iste'mol darajasi.
- Aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasi.

Turli sohalardagi ishchilar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ish haqi darajasidagi farq juda katta. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tafovut ishchi kuchining kam maoshli tarmoqlardan yuqori maoshli tarmoqlarga harakatida o'z ifodasini topadi. Eng kam ish haqining sezilarli darajada oshishi ishsizlikning tez o'sishi uchun sharoit yaratishi mumkin. Eng kam ish haqini oshirishning iqtisodiy chegarasi bor. Mehnat qiymatining mehnat nazariyasiga ko'ra, mehnat bozorida yollanma ishchilar faqat o'zlarining mehnat qobiliyatini yoki ish kuchini sotadilar, ularning qiymati ishchining o'zi va uning ko'payishi uchun zarur bo'lgan yashash vositalarining narxi bilan belgilanadi. Ish kuchini qo'llash jarayonida yangi qiymat yaratiladi, u tovarlarda mujassamlanadi. Aynan shu yangi yaratilgan qiymat mehnat qiymati hisoblanadi. Shu bilan birga, yollangan ishchi o'z mehnati xarajatlari uchun kompensatsiya sifatida ish haqi oladi.

Mehnat sarfi korxonada samarali faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Uning hisob-kitobisiz biznesni rivojlantirishni rejalashtirish va muammoli tashkiliy masalalarni aniqlash qiyin. Mehnat sarfi ko'rsatkichlari mehnat intensivligi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Quyida mehnat intensivligini qanday to'g'ri hisoblash kerakligini, natijada olingan raqam ishlab chiqarishni optimallashtirishga qanday yordam berishini va nima uchun uni vaqti-vaqti bilan hisoblash kerakligi yoritilgan. Mehnat intensivligi – mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketadigan vaqt. Ushbu koeffitsiyent asosida obyektiv ravishda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish rejasini ishlab chiqish oson. Ko'rsatkich unumdorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ko'pincha birlashtiriladi. Lekin bu atamalarni bir-biridan farqlay bilish muhim, chunki mehnat unumdorligi korxonaning vaqt birligida yaratgan mahsulot miqdori, ya'ni teskari proporsiyada hisoblanadi. Murakkablik qanchalik past bo'lsa, unumdorlik shunchalik yuqori bo'ladi.

Mehnat intensivligi koeffitsiyentini topish uchun bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan vaqtni uni ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo'lish kerak.

Ishni boshlashdan oldin, ushbu ikki ko'rsatkich ko'rib chiqiladigan muddatni aniqlash kerak. Agar, masalan, bir haftalik ish vaqtini olsak va uni oylik mahsulot hajmiga ajratsak, natija tubdan noto'g'ri bo'ladi, chunki turli davrlardagi ma'lumotlar olingan.

$$T_p = T \div Q$$

T_p – Mehnat intensivligi

T – Vaqt

Q – Ishlab chiqarish hajmi

Vaqt miqdori (T) – xodimlar ishlagan soatlar yig'indisi. Ma'lumotlar birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan, buxgalteriya kitoblaridan olinishi kerak.

Ishlab chiqarish hajmi (Q) – yaratilgan mahsulotlar yig'indisi. Bu ham tovar birliklarining yig'indisi, ham uning tannarxi yig'indisi bo'lishi mumkin. Asosiysi, hisob-kitoblar va rejalashtirish to'g'ri bo'lishi uchun qaysi ko'rsatkichga e'tibor qaratish kerakligi. Ma'lumotlar birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan olinishi kerak.

Mehnat intensivligi (T_p) – vaqt miqdorining yaratilgan mahsulot hajmiga nisbati. Masalan, korxonada 12 kishi ishlaydi, ularning ish vaqti 9 soat. $12 \times 9 =$ smenada jami 108 soat. Bir smenada har biri 300 so'mdan 20 dona mahsulot ishlab chiqaradi. $20 \times 300 = 6000$ so'm – kuniga ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiy qiymati. $108 / 6000 = 0,018$ – mehnat intensivligi koeffitsiyenti. Bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotning umumiy tannarxiga asoslangan misol edi.

Endi xuddi shu misolni ko'rib chiqamiz, lekin uning qiymatiga emas, balki ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga qarab. 12 ishchi $\times 9$ soat = 108 – smenada ishlangan soatlar yig'indisi. Va uni hajmga bo'lamiz: $108/20 = 5,4$ – mehnat intensivligi koeffitsiyenti.

Vaqti-vaqti bilan koeffitsiyentni hisoblash kerak. Bu ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va o'z vaqtida yaxshilash choralarini ko'rish imkonini beradi. Uning dinamikasini kuzatish

kerak:

Agar koeffitsiyent ortib ketsa, unda mehnat unumdorligining pasayishi sababini topish kerak.

Agar koeffitsiyent kamaysa, jarayon optimallashtirilgan va ishlash yaxshilangan hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat sarfining iqtisodiy mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat sarfini tashkil etuvchi ijtimoiy zarur xarajatlar mavjudligini nazorat qilish va ularni kengaytirish zarur, ayniqsa, ishchi kuchining malakasini oshirish va ijtimoiy sug‘urta xarajatlarini.

2. Mamlakatimizda qo‘llanilayotgan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori faqat insonning biologik omon qolishini ta‘minlashga imkon beradi. Bunday sharoitda faqat fiziologik yashash minimumi haqida gapirish mumkin. Eng kam ijtimoiy standart “mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori” tushunchasiga mos kelishi uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori nafaqat fiziologik, balki ma‘lum darajadagi ijtimoiy va ma‘naviy ehtiyojlarni ham hisobga olishi kerak.

3. Korxonalar va tashkilotlarda mehnat intensivligi koeffitsiyentini yillar davomida hisoblab yurish va shu asosda takomillashgan rejalar tuzib mehnat unumdorligini oshirishga targ‘ib qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mehnat intensivligi hisoblab yurish zarur, chunki u korxonaning samaradorligini aniq ko‘rsatadi, o‘tgan hisobot davrlarini tahlil qilish, muammoli daqiqalarni topish va ularni tuzatish imkonini beradi. Shuningdek, mehnat unumdorligini oshirish, faoliyatning barqaror bo‘lishi uchun optimallashtirilishi kerak bo‘lgan ishni tashkil etishning zaif tomonlarini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Климова Н.В. Экономический анализ (теория, задачи, тесты, деловые игры): Учебное пособие. – М.: Вузовский учебник, 2008. – 287 с.
2. Jack E. Triplett “The Measurement of Labor Cost”: University of Chicago Press. – Chicago: 1983. 4 p.
3. Pardayev M.Q. va boshq. Iqtisodiy tahlil: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma, T.: Mehnat, 2004. — 488 b.
4. Пошерстник Н. В., Мейксин М. С. Заработная плата в современных условиях. – СПб.: Герда, 2008. –с. 16
5. Петти У. Трактат о налогах и сборах // Экономические и статистические работы. – 1940
6. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М., 1992.
7. Струмилин С.Г. Проблемы экономики труда. – М., 1957.
8. Варзин В.В. Особенности формирования заработной платы в промышленной сфере малого города // Экономика образования. – 2010. – № 2 (2). – С. 75–87

<p style="text-align: center;">Б.Сувонов</p> <p>Экономическая сущность потребления труда в хозяйствующих субъектах и ее особенности</p> <p>Аннотация: в условиях рыночной экономики, поскольку рабочая сила является предметом купли-продажи на рынке труда, ее цена, как и другие экономические блага, подвержена влиянию основных экономических законов и, прежде всего, закона стоимости. В данной статье рассматриваются предложения и проблемы, касающиеся теоретических основ показателей стоимости труда в хозяйствующих субъектах.</p> <p>Ключевые слова: труд, стоимость труда, производительность труда, рабочая сила, социальное страхование, минимальная заработная плата, трудоемкость.</p>	<p style="text-align: center;">B.Suvonov</p> <p>Economic essence of labor consumption in economic subjects and its specific characteristics</p> <p>Abstract: In the conditions of the market economy, since labor power is the subject of sale and purchase in the labor market, its price, like other economic goods, is subject to the influence of the basic economic laws and, first of all, the law of value. This article deals with proposals and problems regarding the theoretical foundations of labor cost indicators in economic entities.</p> <p>Keywords: Labor, labor cost, labor productivity, labor force, social insurance, minimum wage, labor intensity.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

2.06.2023 йилда теришга берилди. 21.06.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0045А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023